







XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021-yil yanvar-dekabr oylari uchun dastlabki ma'lumot)

Viloyatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda, milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakuni bo'yicha viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 516,7 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 47,5 mln. AQSh dollariga yoki 10,1 % ga ko'paygan.



TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari)

	2020- yil	2021- yil	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
Tashqi savdo aylanmasi	469,3	516,7	110,1%	X
Ekspori 	169,3	230,8	136,1%	100,0
 tovarlar	160,5	212,5	132,4	92,1
 xizmatlar	8,8	18,3	2,1 m.	7,9
Importi 	299,7	285,9	95,4%	100,0
 tovarlar	299,7	285,9	95,4	100,0
 Saldo	-130,5	-55,1	x	x

Eksport hajmi 230,8 mln. AQSh dollari (36,1 % ga ko'paygan) bo'lib, import hajmi 285,9 mln. AQSh dollarini (4,6 % ga kamaygan) tashkil etdi. Hisobot davrida 55,8 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida, tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



XORAZM VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR
(2021- yil yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari, ulushi % da)



Xitoy Xalq Respublikasi

TSA – 121,1
Eksport – 23,3
Import – 97,8



Rossiya Federatsiyasi

TSA – 111,9
Eksport – 68,4
Import – 43,5



Turkiya

TSA – 100,5
Eksport – 30,9
Import – 69,6



Qirg'iz Respublikasi

TSA – 36,6
Eksport – 36,4
Import – 0,2



Qozog'iston

TSA – 30,2
Eksport – 22,7
Import – 7,8



Koreya Respublikasi

TSA – 20,5
Eksport – 0,7
Import – 19,8



Turkmaniston

TSA – 11,6
Eksport – 6,1
Import – 5,5



Pokiston

TSA – 10,8
Eksport – 10,0
Import – 0,8



Eron

TSA – 9,1
Eksport – 4,9
Import – 4,2



Ukraina

TSA – 8,4
Eksport – 3,1
Import – 5,3

Viloyatimiz tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha jahonning 98 ta mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasi (23,4 %), Rossiya Federatsiyasi (21,7 %), Turkiya (19,4 %), Qirg'iz Respublikasi (7,1 %), Qozog'iston (5,8 %) va Koreya Respublikasi (4,0 %) davlatlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatimizda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.



**XORAZM VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN
TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI**
(yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Xitoy Xalq Respublikasi	133,7	84,9	121,1
Eksport	9,6	15,6	23,3
Import	124,1	69,3	97,8
Saldo	- 114,5	- 53,7	-74,4
Rossiya Federatsiyasi	77,5	137,0	111,9
Eksport	29,4	49,7	68,4
Import	48,1	87,3	43,5
Saldo	- 18,7	- 37,5	24,9
Turkiya	37,8	47,7	100,5
Eksport	6,6	18,0	30,9
Import	31,2	29,7	69,5
Saldo	-24,6	- 11,7	-38,6
Qirg'iz Respublikasi	37,6	37,9	36,6
Eksport	36,9	37,5	36,4




XORAZM VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

Davlat nomi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Import	0,7	0,3	0,3
Saldo	36,2	37,2	36,1
Qozog'iston	32,9	24,5	30,2
Eksport	23,6	20,3	22,4
Import	9,4	4,3	7,8
Saldo	14,2	16,0	14,6
Koreya Respublikasi	18,4	40,2	20,5
Eksport	0,4	0,8	0,8
Import	17,9	39,4	19,8
Saldo	- 17,5	- 38,6	-19,1
Turkmaniston	13,3	10,8	11,6
Eksport	6,2	5,6	6,1
Import	7,2	5,1	5,5
Saldo	- 1,0	0,5	0,6
Pokiston	0,4	1,5	10,8
Eksport	0,0	1,2	10,0
Import	0,4	0,3	0,9
Saldo	- 0,4	0,9	9,1
Eron	14,2	5,8	9,1
Eksport	10,1	4,1	4,9
Import	4,1	1,7	4,2
Saldo	6,0	2,4	0,8
Ukraina	6,6	6,2	8,4
Eksport	3,6	1,7	3,1
Import	3,0	4,5	5,3
Saldo	0,6	- 2,7	-2,1



XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021 - yilning yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 40,6 % ni tashkil etdi.



Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2021 - yilning yanvar-dekabr oylarida 2020 - yilning shu davriga nisbatan 25,6 foizga oshgan va jami TSA dagi ulushi 59,4 % ni tashkil etdi.


XORAZM VILOYATINING EKSPORTI (2021- yil yanvar-dekabr)

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning eksportyorlari soni 203 tani tashkil etib, ular tomonidan 230,8 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan 36,1 % ga ko'paygan) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 92,1 % ni tashkil etib, ular asosan sanoat tovarlari (49,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (30,3 %), turli xil tayyor buyumlar (6,7 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)



■ Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar – 30,3

■ Ichimliklar va tamaki – 0,0 %

■ Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari – 4,6 %

■ Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar – 0,6 %

■ Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar – 0,0 %

■ Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar – 0,5 %

■ Sanoat tovarlari – 49,3 %

■ Mashinalar va transport asbob-uskunalar – 0,2 %

■ Turli xil tayyor buyumlar – 6,7 %

■ Xizmatlar – 7,9 %



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-dekabr)**

XSST tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami eksport	230,8	136,1	100,0	143,4	118,7	100,0	87,4	179,1	100,0
shu jumladan:									
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	69,8	139,8	30,3	55,3	126,8	38,6	14,5	2,3 m.	17,1
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	10,6	68,3	4,6	2,1	44,4	1,4	8,5	78,5	10,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	1,3	39,6 m.	0,6	1,2	36,1 m.	0,8	0,1	199,8 m.	0,2
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,1	3,1	0,0	0,1	4,1	0,0	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	1,1	151,4	0,5	0,6	91,5	0,4	0,4	-	0,5
Sanoat tovarlari	113,7	164,7	49,3	56,1	142,1	39,1	57,6	194,9	68,0
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	0,4	184,6	0,2	0,4	181,4	0,3	0,0	69,4 m.	0,0
Turli xil tayyor buyumlar	15,5	67,4	6,7	15,4	67,6	10,8	0,1	48,0	0,1
Xizmatlar	18,3	2,1 m.	7,9	12,2	162,5	8,5	6,1	4,8 m.	7,2

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yoʻnalishi boʻyicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi sanoat tovarlari, oziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlar hissasiga toʻgʻri kelmoqda.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni koʻrsatmoqdaki, 2020- yilning yanvar-dekabriga nisbatan, nooziq-ovqat xomashyo (yoqilgʻidan tashqari), mineral yoqilgʻi, yogʻlash moyi va shunga oʻxshash materiallar, hayvon va oʻsimliklar moyi (yogʻlari), yogʻlar va mumlar eksportida pasayish kuzatildi.




EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI
(yanvar-dekabr, % da)

XSST tarkibi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	100,0	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	47,5	29,5	30,3
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilgʻidan tashqari	11,3	9,2	4,6
Mineral yoqilgʻi, yogʻlash moyi va shunga oʻxshash materiallar	0,9	0,0	0,6
Hayvon va oʻsimliklar moyi (yogʻlari), yogʻlar va mumlar	0,3	1,3	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga oʻxshash mahsulotlar	0,4	0,4	0,5
Sanoat tovarlari	25,7	40,7	49,3
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	0,1	0,1	0,2
Turli xil tayyor buyumlar	2,2	13,6	6,7
Xizmatlar	11,4	5,2	7,9




**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR
EKSPORTI HAJMLARINING DINAMIKASI**
(yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari, ulushi % da)

2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 29,6 %), Qirg'iz Respublikasi (15,8 %), Turkiya (13,4 %), Xitoy Xalq Respublikasi (10,1%), Qozog'iston (9,7 %), Pokiston (4,3 %) va Turkmaniston (2,6 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi umumiy ulushi 85,6 foizni tashkil etmoqda.





**XORAZM VILOYATINING EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARNING ULUSHI**
(2021- yil yanvar-dekabr, % da)



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida o'tgan yildagi kabi tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi yetakchi mavqeyini saqlab turibdi. Keyingi holatda Qirg'iz Respublikasi va Turkiya o'rin egallagan.



**XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA
AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**
(yanvar-dekabr)

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'рни	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Rossiya Federatsiyasi	49,7	68,4	161,0	137,6	1	1
Qirg'iz Respublikasi	37,5	36,4	101,7	96,9	2	2

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Turkiya	18,0	30,9	2,7 m.	171,8	4	3
Xitoy Xalq Respublikasi	15,6	23,3	160,9	149,9	5	4
Qozog'iston	20,3	22,4	85,9	110,6	3	5
Pokiston	1,2	10,0	27,7 m.	8,2 m.	11	6

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari hamda nooziq-ovqat xom ashyo (yoqilg'idan tashqari) kiradi.




XORAZM VILOYATINING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari)

XSST tarkibi	Rossiya		Qirg'iziston		Turkiya		XXR	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Jami eksport	49,7	68,4	37,5	36,4	18,0	30,9	15,6	23,3
Shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	15,0	19,6	5,8	17,1	1,0	0,6	0,6	1,2
Ichimliklar va tamaki	-	-	0,0	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	0,3	0,5	4,1	0,9	3,3	1,4	2,3	3,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	0,0	1,1	0,0	0,0	-	0,0	-	-

XSST tarkibi	Rossiya		Qirg'iziston		Turkiya		XXR	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	-	0,0	0,3	0,0	-	0,4	-	-
Sanoat tovarlari	29,4	37,7	5,4	8,9	13,5	28,3	12,7	18,7
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	0,0	-	0,2	0,4	0,0	0,0	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	0,2	0,4	21,7	9,1	0,2	0,1	-	-
Xizmatlar	4,7	9,0	0,0	0,0	0,0	0,2	0,0	0,0

Xizmatlar eksporti hajmi 18,3 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 7,9 % ni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 2,1 martaga o'sish kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (77,0%), safarlar (turizm) (14,9 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (8,1%) hissasiga to'g'ri kelgan.





MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan meva-sabzavot mahsulotlari eksportida 67,5 mln. dollar qiymatli yoki 110,9 ming tonnadan ziyod mahsulot eksport qilingan. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 30,1 mln. AQSh dollariga teng 60,1 ming tonna sabzavot, shuningdek, 12,2 mln. AQSh dollari qiymatidagi 14,5 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi. Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 29,2 % ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2021- yil yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari)



Bugungi kunda viloyatimizda meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va eksport qilish sektorining salohiyati juda yuqori va bu qulay

tabiiy-iqlim sharoitlari mavjudligi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan to'plangan tajribaga ham bog'liqligi bilan ifodalanadi. Shu munosabat bilan hukumat qishloq xo'jaligi xom-ashyosini sanoat asosida qayta ishlashni va yetishtirilgan mahsulotni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi (29,0 %), Qirg'iz Respublikasi (26,2 %), Qozog'iston (18,9%) va Turkmaniston (3,8 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.


XORAZM VILOYATINING IMPORTI (2021- yil yanvar-dekabr)

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida import hajmi 285,9 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 4,6 % ga kamaygan.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (40,6 %), turli xil tayyor buyumlar (26,5 %), nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg'idan tashqari, 9,8 %) , sanoat tovarlari (7,5 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'LIMI BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)





Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yilning yanvar-dekabrida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,8 mln. AQSh dollariga kamaygan va 285,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-dekabr)**

Tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, %da	umumiy hajmga nisbatan, %da	mln. AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, %da	umumiy hajmga nisbatan, %da	mln. AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, %da	umumiy hajmga nisbatan, %da
Jami import	285,9	95,4	100,0	66,2	63,7	100,0	219,7	112,2	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	20,3	24,2	7,1	12,7	26,9	19,2	7,6	20,7	3,5
Ichimliklar va tamaki	0,1	3,6 m.	0,0	0,1	3,6 m.	0,1	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	27,9	95,4	9,8	24,5	97,0	37,0	3,4	85,0	1,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash	2,8	109,1	1,0	2,2	91,8	3,3	0,6	3,0 m.	0,3

materiallar									
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	3,1	52,5	1,1	2,9	49,2	4,4	0,2	5,2 m.	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	18,5	130,5	6,5	5,3	98,4	8,1	13,2	150,4	6,0
Sanoat tovarlari	21,4	127,3	7,5	8,4	109,9	12,6	13,0	141,9	5,9
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	116,1	130,6	40,6	4,9	72,9	7,4	111,2	135,3	50,6
Turli xil tayyor buyumlar	75,7	130,5	26,5	5,2	157,1	7,9	70,4	128,9	32,1



**IMPORT TARKIBI DINAMIKASI
(2021- yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)**

XSST tarkibi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami import	100,0	100,0	100,0



shu jumladan:

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	26,3	28,0	7,1
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	6,4	9,8	9,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	0,4	0,9	1,0

XSST tarkibi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,0	2,0	1,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	2,9	4,7	6,5
Sanoat tovarlari	4,0	5,6	7,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	40,7	29,7	40,6
Turli xil tayyor buyumlar	18,2	19,4	26,5



MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari, ulushi % da)



2020- yil bilan taqqoslaganda, import bo'yicha eng yuqori yettitalikda o'zgarish kuzatilib, Ukraina o'rnini Turkmaniston egalladi.




XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-dekabr)

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Xitoy Xalq Respublikasi	69,3	97,8	55,8	141,1	2	1
Turkiya	29,7	69,5	95,0	2,3 m.	5	2
Rossiya Federatsiyasi	87,3	43,5	181,5	49,9	1	3
Koreya Respublikasi	39,4	19,8	2,2 m.	50,3	3	4
Qozog'iston	4,3	7,8	45,7	181,9	9	5
Germaniya	8,6	5,6	99,1	64,6	6	6
Turkmaniston	5,1	5,5	72,1	106,4	7	7



XORAZM VILOYATINING IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021- yil yanvar-dekabr)



2021-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatga 53 ta xorijiy davlatlardan tovarlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi, Qozog'iston, Germaniya va Turkmaniston kabi hamkor davlatlardan jami import hajmi 249,5 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 87,2 % ini tashkil qiladi.

Viloyatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan birqator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi
bo'limi
Tel.: (62) 224-65-09**